YUSUFNOMALAR TURKUMIDA ANDALIB DOSTONINING O'RNI VA O'ZIGA XOSLIGI

Xo`janazarov Ulug`bek Urol o`g`li
Qarshi davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili)
mutaxassisligi II-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: G‘. Shodmonov
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (f.f.f.d.), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada yusufnomalar turkumida Andalib "Yusuf va Zulayho" dostonining tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Qur'oni Karim, tafsir adabiyoti va Sharq mumtoz adabiyotida yusufnomalar taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Jomiy, Durbek va Olim Devona asarlari bilan qiyosiy tahlil orqali Andalib dostonining adabiy silsiladadagi alohida o'rni belgilanadi. Maqolada dostonning nasru nazm uslubi, tasavvuf ta'limotidan xoliligi va xalqona badiiy ruhi uning o'ziga xos belgilari sifatida ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Andalib, yusufnoma, Jomiy, Durbek, nasru nazm, tasavvuf, Zulayho, qiyosiy tahlil, Sharq adabiyoti, XVIII asr.

Аннотация.В данной статье анализируется место и своеобразие дастана Андалиба «Юсуф и Зулейха» среди произведений жанра «юсуфнаме». Рассматриваются основные направления развития «юсуфнаме» в Коране, тафсирной литературе и классической восточной литературе. Посредством сравнительного анализа с произведениями Джами, Дурбека и Алима Дивана определяется особое место дастана Андалиба в литературной традиции. В статье научно обоснованы прозо-поэтический стиль, отсутствие суфийских элементов и народный художественный дух как отличительные черты дастана.

Ключевые слова: Андалиб, юсуфнаме, Джами, Дурбек, проза и поэзия, суфизм, Зулейха, сравнительный анализ, восточная литература, XVIII век.

Abstract. This article analyzes the place and distinctive features of Andalib's dastan 'Yusuf and Zulayha' among the genre of Yusufname. The main directions of the development of Yusufname in the Quran, tafsir literature, and classical Eastern literature are examined. Through comparative analysis with the works of Jami, Durbek, and Alim Divana, the unique position of Andalib's dastan in the literary tradition is determined. The article scientifically substantiates the prose-poetic style, the absence of Sufi elements, and the folk artistic spirit as distinctive features of the dastan.

Keywords: Andalib, Yusufname, Jami, Durbek, prose and verse, Sufism, Zulayha, comparative analysis, Eastern literature, 18th century.

Yusuf payg'ambar qissasi insoniyat ma'naviy-adabiy merosining eng qadimiy va boy mavzularidan biridir. "Nahnu naqussa 'alayka ahsanal qasas" , "Biz senga qissalarning eng go'zalini bayon etamiz" deyilgan . [Mansur, 1992:235] Qur'oni Karim Yusuf surasi butun insoniyatga ulashilgan bu ma'naviy xazina asrlar davomida shoirlar, adiblar va mutafakkirlarni ilhomlantira kelgan. Sharq mumtoz adabiyotida Yusuf qissasi asosida yaratilgan yusufnomalar alohida bir janr turkumini tashkil etadi. Ushbu turkumda XVIII asr o'zbek va turkman adabiyotlarining noyob namoyandasi Nurmuhammad Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni o'ziga xos bir o'rin egallaydi.

Yusufnomalar taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu janr faqat diniy matn sifatida emas, balki yuksak badiiy-estetik qadriyatga ega adabiy hodisa sifatida ahamiyat kasb etadi. Abduraxmon Jomiydan Durbekgacha, Qul Aliysdan Olim Devonagacha bo'lgan katta adabiy silsilada har bir shoir Yusuf qissasini o'z davri va millatining ma'naviy-estetik talablariga muvofiq yangicha badiiy shaklda ifodalagan. Andalib esa bu silsilaning XVIII asrdagi eng yorqin halqasini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi - Andalib dostonini yusufnomalar turkumida qiyosiy tahlil qilish orqali uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda belgilashdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi: yusufnomalar

taraqqiyotining uchta asosiy yo'nalishi tavsiflanadi; Jomiy, Durbek, Olim Devona asarlari bilan qiyosiy tahlil olib boriladi; Andalib dostonining o'ziga xos belgilari - nasru nazm uslubi, tasavvuf ta'limotidan xoliligi, xalqona badiiy ruhi - ilmiy asosda ochib beriladi

1. Yusufnomalar taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. Yusufnomalar taraqqiyotida uchta asosiy yo'nalish ajralib turadi. Birinchisi : qur'oniy-tafsiriy yo'nalish. Bu yo'nalishda Yusuf qissasi bevosita Qur'on va tafsir adabiyotiga tayanib talqin qilinadi, voqealarning islomiy-axloqiy ma'nosi birinchi o'ringa qo'yiladi. Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo" asari bu yo'nalishning eng muhim namunasidir. Rabg'uziy qissani nasru nazm aralash bayon qilib, har bir voqeaga Qur'on oyatlari asosida izoh beradi.

Ikkinchi yo'nalish - tasavvufiy-ishqiy yo'nalish. Bu yo'nalishning eng yuksak namunasi Abduraxmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" masnavisidir 1483 Jomiy Zulayhoning Yusufga bo'lgan sevgisini mujoziy ishqdan haqiqiy ishqqa - ilohiy muhabbatga ko'tarilish ramzi sifatida talqin qiladi. "Ishq oti chun Zulayhoni afgand, / Ko'nglida Yusuf ashkin barkan zand" - deydi shoir o'z asarida, ya'ni ishq oti Zulayhoni yiqitdi, ko'nglida Yusuf muhabbatini uyg'otdi. Shu yo'nalishda Mirzo Olim Devonaning "Ravzai asror" asari ham yozilgan.

Uchinchi yo'nalish - xalqona-badiiy yo'nalish. Bu yo'nalishda yusufnoma xalqqa yaqin, sodda va ravon tilda, xalq og'zaki ijodiyoti an'analari bilan uzviy bog'liq holda yaratiladi. Durbek (XV asr) ning "Yusuf va Zulayho" dostoni bu yo'nalishning o'zbek adabiyotidagi ilk namunasi hisoblanadi. Jumayevaning ta'kidlashicha: "Durbek dostonining etakchi xususiyati uning xalqona, sodda va ravon tilda yozilganidadir." [Jumayeva, 2020: 32]

Andalib dostoni aynan shu uchinchi yo'nalishni XVIII asrda qayta tiklagan va boyitgan. Biroq Andalib nafaqat Durbek an'anasini davom ettirgan, balki Rabg'uziy uslubidan ham samarali foydalangan. Muallifning o'zi dostonida shunday deydi: "Ammo noqilon daftari mo'tabar Qisas ul-anbiyo'din rivoyat qilibdurlar kim..." Bu

iqtibos Andalibning Rabg'uziy an'anasiga ongli ravishda tayanganini isbotlaydi. [Durbek, 1959:54]

2. Andalib dostonining qiyosiy tahlili. Andalib dostonini boshqa yusufnomalar bilan qiyoslash uning o'ziga xos jihatlarini aniqroq ko'rsatadi. Birinchi muhim farq - tasavvuf ta'limotiga munosabatda. Jomiy va Olim Devona dostonlarida Zulayhoning sevgisi tasavvufiy ramz - mujoziy ishqdan haqiqiy ishqqa ko'tarilish yo'li - sifatida talqin etiladi. Andalibda esa bu tuyg'u sof insoniy muhabbat sifatida, xalqona va samimiy tarzda ifodalanadi. Jumayevaning xulosasiga ko'ra: "Andalibning dostonida tasavvufning biror elementi borligi sezilmaydi." [Jumayeva, 2020: 47]

Ikkinchi muhim farq - Zulayhoning tushida Yusufni ko'rishi masalasida. Jomiy va Olim Devona dostonlarida Zulayho Yusufni uch marotaba tushida ko'radi va tushlar oralig'i bir yilni tashkil etadi. Andalibda esa bu raqam ikki marta bo'lib, tushlar oralig'i ikki yilni tashkil etadi. Bu farq birgina raqam masalasi emas - u Zulayho obrazining Andalib talqinidagi o'ziga xos tuzilishi bilan bog'liq.

Uchinchi muhim farq - qahramonlar tizimida. Andalib dostonida Ya'qubning o'g'illari har birining o'ziga xos kuchi va xususiyati batafsil ko'rsatiladi - bu xalq eposi an'anasiga yaqin usul. Jumayevaning tadqiqotiga ko'ra, Durbek dostonida bu jihat umumiy tarzda berilgan bo'lsa, Andalibda har bir qahramon o'zining individual xususiyatiga ega.

To'rtinchi muhim farq - Yusufning opasi obrazida. Bu obraz faqat Andalib dostonida uchraydi: Yusufning opasi aka-ukalarning yovuz niyatlarini payqab, otasi qoshiga yuguradi va ukasini izlab ketadi. Bu obraz "Alpomish" dostonidagi Qaldirg'och obraziga o'xshash bo'lib, Andalib dostonining xalq eposi bilan aloqasini ko'rsatadi.

Beshinchi farq - nasru nazm uslubining qo'llanilishida. Jomiy va Durbek dostonlari sof she'riy masnavi shaklida yozilgan bo'lsa, Andalib asari Rabg'uziy an'anasida nasru nazm aralash tarzda yaratilgan. Shoir nasrda voqealarni bayon

qilsa, she'riyatda g'azal, murabbi, muxammas janrlarida qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bu usul asarni barcha ijtimoiy tabaqalarga o'qishli qiladi.

3. Andalib dostonining o'ziga xos xususiyatlari. Yuqoridagi qiyosiy tahlil Andalib dostonining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Birinchidan, xalqona til va samimiy ruh. Andalib dostonining tili boshqa yusufnomalarga nisbatan ancha sodda va ravon. Shoir murakkab arabiy-forsiy iboralardan ko'ra xalq tiliga yaqin so'z va ifodalarga afzallik beradi. Masalan, dostonning ayrim satrlarida:

Shukr etoyın Xudoyimning ishina,
Qorang'u choh bugun munavvar bo'ldi.
Inonmadim otam ko'rgan tushina, [Andalib, 1915: 26]

Bu satrlar Yusufning chohda ham sabr va ehtiqodini saqlaganini sodda, ammo ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Murakkab tasavvufiy ramzlarga murojaat qilinmagan.

Ikkinchidan, diniy-axloqiy ruh. Tasavvuf ta'limotidan xoli bo'lishiga qaramasdan, Andalib dostoni chuqur diniy-axloqiy ruhga ega. Sabr, shukr va imon - asarning uch asosiy g'oyaviy tuyasi. Yusufning har bir sinovda toqat va ehtiqod bilan chiqqani islomiy axloqning timsoliga aylanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy kontekst. Andalib dostonini XVIII asrning dramatik tarixi, xususan Xorazm xonligidagi siyosiy beqarorlik va xalq azob-uqubatlari kontekstida o'qish kerak. Shoir dostonida Yusufning sabr orqali adolatga erishishini tasvirlash bilan o'z zamonasining xalqini ruhlantirishni ko'zlagan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Yusufnomalar turkumida uchta asosiy yo'nalish - qur'oniy-tafsiriy (Rabg'uziy), tasavvufiy-ishqiy (Jomiy, Olim Devona) va xalqona-badiiy (Durbek, Andalib) - mavjud. Andalib aynan uchinchi yo'nalishni XVIII asrda qayta tiklagan.

2. Andalib dostonining asosiy o'ziga xos xususiyatlari: tasavvuf ta'limotidan xoliligi, nasru nazm uslubi, Zulayho muhabbatining sof insoniy tuyg'u sifatida talqin etilishi, xalqona badiiy ruh va xalq eposi an'analari bilan bog'liqlik.

3. Andalib dostoni yusufnomalar turkumida o'zining mustaqil adabiy-estetik konsepsiyasi bilan ajralib turadi va XVIII asr o'zbek hamda turkman adabiyotlarining muhim yodgorligi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andalib N. Yusufu Zulayhoyи turkiy. Toshbosma. – Toshkent: "Aziya" litografiyasi, 1915.
2. Bertels Ye.E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965.
3. Durbek. Yusuf va Zulayho. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1959.
4. Jabborov N. O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016.
5. Jomiy A. Yusuf va Zulayho. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1980.
6. Jumayeva D. "Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi. PhD dissertatsiya. – Toshkent, 2020.
7. Karomtov H. Yusufnomalar adabiy-estetik asoslari. – Toshkent: Fan, 1999.
8. Komilov N. Tasavvuf. I kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
9. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1965.
10. Qur'oni Karim. Yusuf surasi. Tarjima: Aloauddin Mansur. – Toshkent: Cho'lpon, 1992.
11. Qurbonov A. Yusuf va Zulayho qissalarining ijodiy talqinlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1997. – 1-son.
12. Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.
13. Tohirov Q. Turkman shoiri Andalib va o'zbek adabiyoti. PhD dissertatsiya. – Samarqand, 1964.